

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 1-qism. Sentyabr-2025**

**BROKA AFAZIYASI VA AGRAMMATIZM FENOMENINING LINGVISTIK
ASOSLARI**

Nazarova Sabrina, NamDU 4-kurs talabasi,

Email: nazarovasabrina046@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlari – neyrolingvistika hamda klinik lingvistika inson miyasidagi o'zgarishlar va jarohatlarning nutqqa, fikrlashga hamda kommunikativ faoliyatga ta'sirini o'rganadi. Ushbu maqolada afaziyaning Broka turi haqida umumiy ma'lumot berilib, uning lingvistik xususiyatlari, nevrologik asoslari va nutqdagi namoyon bo'lish shakllari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, Broka afaziyasida uchraydigan agrammatizm fenomeni tilshunoslik va psixolingvistika nuqtayi nazaridan keng yoritiladi.

Kalit so'zlar va tayanch iboralar: Vernike afaziyasi, Broka afaziyasi, amnestik afaziya, sindrom, agrammatizm, neyrolingvistika, semantik tizim.

Annotation: Important branches of modern linguistics – neurolinguistics and clinical linguistics – examine the impact of brain injuries and neurological changes on speech, cognition, and communicative ability. This article provides an overview of Broca's aphasia, its linguistic description, neurological basis, and speech manifestations. Special focus is given to the phenomenon of agrammatism as a core feature of Broca's aphasia within both linguistic and psycholinguistic frameworks.

Key words and phrases: Wernicke's aphasia, Broca's aphasia, amnesic aphasia, syndrome, agrammatism, neurolinguistics, semantic system.

Аннотация: Важные направления современной лингвистики – нейролингвистика, а также клиническая лингвистика изучают влияние изменений и травм головного мозга на речь, мышление и когнитивные процессы. В данной статье рассматриваются особенности афазии Брока, её лингвистические характеристики, неврологические основы и проявления в речи. Особое внимание уделено феномену аграмматизма как ключевому признаку данного речевого расстройства.

Ключевые слова: афазия Вернике, афазия Брока, амнестическая афазия, синдром, аграмматизм, нейролингвистика.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

Uchta asosiy afaziya sindromi bor – Vernike afaziyasi, Broka afaziyasi va Amnestik afaziya – ular nevrologik adabiyotlarda keng tasvirlangan bo'lib, asosan, nutq naqshidagi muhim o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. So'nggi vaqtlarda tilni qabul qilish (input) va ishlab chiqarish (output) o'rtasidagi tafovutga asoslangan yondashuv nazariy jihatdan ahamiyatga ega bo'lsa-da, amaliy nutqiy holatlarni to'liq aks ettirmaydi. Shu bois, Broka afaziyasining o'ziga xos xususiyatlarini alohida tahlil qilish zarur.

Broka afaziyasi – miyaning chap yarimsharidagi pastki peshona qismida joylashgan Broka markazi shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq buzilishi bo'lib, u asosan nutq ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir qiladi. Bemorlarning nutqni tushunish qobiliyati nisbatan saqlanib qolgan bo'lsa-da, grammatik jihatdan to'g'ri jumlar tuzish, sintaktik strukturalarni hosil qilishda jiddiy muammolar kuzatiladi. Broka afaziyasining asosiy belgilaridan biri agrammatizm hisoblanib, bunda vazifadosh so'zlar va fleksiya morfolamalar tushirib qoldiriladi. Agrammatizm lingvistik nuqtayi nazardan grammatik tizimning izchil buzilishi emas, balki fonologik va morfosintaktik xususiyatlar bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi.

Broka afaziyasida ko'pincha kuch sarflab gapirish va nisbatan to'g'ri tushunish holatlari birga uchraydi. Agrammatik afaziyali bemorlar va nevrologik bo'lmagan bemorlar turli jumladan so'zlarni tanlab, ularning har bir jumladagi o'zaro qanday bog'liqligini his qilish asosida tasnifladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Broka afaziyasi bo'lgan bemorlar, ya'ni grammatik nutqda:¹

- Grammatik bog'lovchilar ishlatilmaydi;
- So'z tartibi buziladi;
- Murakkab sintaktik qurilmalar soddalashtiriladi;

Masalan, “Men kitob o'qidim” o'rniga Broka afaziyasidagi bemor “Men...kitob...o'qi” shaklida gapirishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Broka afaziyasi bo'lgan bemorlar so'zlarning umumiy ma'nosini tushunishda nisbatan yaxshi natijalarga erishadi, biroq grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishda qiynaladilar. Ular semantik jihatdan asosiy mazmunni anglashlari mumkin, lekin uni grammatik shaklda ifodalashda sustkashlik seziladi,

¹ A. D.Friederici “The time course of syntactic activation during language processing: A model based on Neuropsychological and Neuropsychological data” - Brain and Language jurnali, 1995.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

ya'ni qiynalishadi. Masalan, pour (quymoq), spill (to'kmoq) kabi harakat fe'llari o'xshash bo'lsa ham, Broka afaziyasi bo'lgan bemorlar ularni grammatik jihatdan to'g'ri qo'llay olmaydi. Bu holat tezda motor apraksiya (harakatlarning buzilishi) va harakat qiyinlashuvi bilan tavsiflanadigan artikulyatsiyaga o'tadi, ammo til funksiyasida doimiy buzilishlar kuzatilmaydi. An'anaviy tarzda Broka afaziyasi deb ataladigan murakkab sindrom esa uzoq muddatli mutizm (so'zlasha olmaslik), nutqiy shablonlar va agrammatizm bilan tavsiflanadi. Bu sindrom Broka sohasini, insulin va chap o'rta miya arteriyasining yuqori qismi orqali qon bilan ta'minlanadigan qo'shni miya qismlarini qamrab olgan ancha katta infarkt bilan bog'liq.²

Shu o'rinda logopedik terapiya haqida aytishimiz joiz, chunki u Broka afaziyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bemorning gapirish, tushunish, yozish va o'qish ko'nikmalarini tiklash yoki yaxshilashda samarali natijalar beradi. Lingvistik va psixolingvistik yondashuvlar birgalikda qo'llanganda bemorlarning ijtimoiy muloqotga qaytish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Broka afaziyasi nutqiy faoliyatda eng ko'p uchraydigan sindromlardan biri bo'lib, uning asosiy xususiyatlari sintaktik jarayonlardagi buzilishlar va agrammatizmida namoyon bo'ladi. Bunday bemorlar so'zlarning umumiy ma'nosini tushunishlari mumkin, ammo grammatik jihatdan to'g'ri jumla tuzishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning nutqiy qobiliyatlarini tiklashda logopodik terapiya va maxsus nutq mashqlari katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy neyrolingvistika ushbu buzilish orqali inson miyasi va til o'rtasidagi murakkab aloqalarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibodullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent – Zamon nashr: 2019, 495b.
2. Mary-Louise Kean. Agrammatism. London – Academic Press: 1985.
3. Aripov Z, Oripova O. Nutq buzilishining turlari va xususiyatlari (maqola).
4. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik (o'quv qo'llanma).
5. G'ulomov A. O'zbek tilida kelishiklar. Toshkent – Fan: 1982.
6. G'ulomov A. O'zbek tilida aniqlovchilar. Toshkent – Fan: 1985.
7. G'aniyeva S. O'zbek tili sintaksisi. Toshkent – Fan: 2001.

² Mary-Louise Kean. Agrammatism. London – Academic Press: 1985.

**O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 1-qism. Sentyabr-2025**

8. Abulazova M., Avliyoqulova L. Bemor bilan nutqiy jarayonda so‘zning ta’siri. Oriental Renaissance Innovative, Educational, Natural and Social Sciences.
9. Goodglass H, Kaplan E. The Assessment of Aphasia and Related to Disorders. Philaselphia – Lea & Febiger: 1972.